

**DORIVOR GIYOHNING INSON SALOMATLIGI UCHUN  
O‘TA MUHIM VA FOYDALI XUSUSIYATLARI**

*Nurxanova Toshbibi Buxarovna,  
Surxondaryo viloyati Denov tumani  
40-maktab, biologiya fani o‘qituvchisi,  
telefon: +998903739315*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dorivor o‘simliklarning shifobaxshligi, ular tarkibidagi kimyoviy moddalar, dorivor o‘simliklarning organizmga ta'siri ularning tarkibidagi kimyoviy birikmalarning miqdori haqida yoritiladi.

**Kalit so‘z:** O‘simlik, migren, antioksidant, glikozinlar, vitaminlar, oshlovchi moddalar.

Dorivor giyohining inson salomatligi uchun o‘ta muhim va foydali xususiyatlari haqida so‘z yuritamiz. Za‘faronli shifobaxsh damlama quyidagi xususiyatlarga ega:

· Qon tarkibini tozalaydi (yangi qon hujayralari hosil bo‘lishini kuchaytiradi, yurak qon tomir tizimi faoliyatini mustahkamlaydi, organizmning barcha hujayralarini oziqlantiradi) uni organizmda aylanishini normallashtiradi;

· Miya faoliyati aktivligini yaxshilaydi (bosh miya to‘qimalarini o‘stiradi, xotirani mustahkamlaydi)

· Nevrozdan forig‘ qiladi;

· Bosh og‘rig‘i (migren) va uyqusizlikdan xalos etadi;

· Oshqozon-ichak faoliyatini me‘yorga keltiradi;

· Oshqozon osti bezi faoliyatini yaxshilaydi

· Ortiqcha o‘t suyuqligi ajralishidan xalos etadi;

· Buyrak va qovuqni davolaydi (asal aralashtirilgan za‘faron buyrak va qovuqdagi toshlarni maydalaydi);

· Antioksidant ta’sirga ega (energetik modda almashinuvini yaxshilaydi, zararli moddalarni organizmdan chiqarib yuboradi);

· Moddalar almashinuvini yaxshilaydi;

· Organizmni quvvatlaydi;

· Ko‘rish qobiliyatini tiklaydi, ko‘z to‘rpardasiidagi illatlarni davolaydi;

· Organizmdagi radiatsiya darajasini pasaytiradi.

· Onkologik kasalliklarni davolashda (hatto kasallikning oxirgi bosqichida saraton o‘simtalariga qarshilik ko‘rsatadi va ularning hujayralari o‘sishini to‘xtatadi).

Ba'zi dorivor o'simliklar, masalan, yalpiz plantatsiyalarda ko'paytirilmoqda; tishini yuvishdan erinmaydigan har bir kishi yalpiz moyidan har kuni bahramand bo'ladi. Yalpiz moyining asosiy qismini tashkil etgan modda - mentol tish poroshogini xushbo'y qiladi. Mentol validol va boshqa yurak kasalligi dorilari, tinchlantiruvchi dorilarga, kosmonavtlarning ovqatlanish ratsioniga kiradigan yalpizli karamelga ham qo'shiladi.

Mamlakatimiz yovvoyi holda o'sadigan dorivor o'simliklarga ham boy. O'rmonlarda marvaridgul o'sadi, undan yurak kasalligi bilan og'riqlarga dori tayyorlanadi, o'rmon etagi va nam o'tloq yerlarda o'sadigan valeriana o'simligidan tinchlantiruvchi dori ishlanadi. O'tloq yerlarda har qadamda dalachoy (uni xalq orasida 95 dardga davo bo'ladi deyishadi), bo'yimodaron, ko'ko't, gazako't, qora andiz va boshqa dorivor o'simliklar o'sib yotadi.

Dorivor o'simliklarning organizmga ta'siri ularning tarkibidagi kimyoviy birikmalarning miqdoriga bog'liq. Bu birikmalar o'simliklarning qismlarida turli miqdorda to'planadi. Dori tayyorlash uchun o'simlikning kerakli qismlari turli muddatlarda yig'iladi, masalan, po'stlog'i, kurtagi erta bahorda, bargi o'simlik gullashi oldidan yoki gullaganda, meva va urug'lari pishganda, ildiz, ildizpoyasi bahorda yoki kech kuzda olinadi.

Dorivor o'simliklar havo ochiq paytida, shudring ko'tarilgach yig'ib olinadi.. Ayrim hollarda dorivor o'simliklarni aniqlash insonga qimmatga tushgan, chunki

dorivor o'simliklar ta'sirini u dastlab o'zida sinab ko'rgan. Zubturus bargi oyoqdagi yarani tuzatgan, qichitqi o't bargi esa kuydirgan. Bir qism limono't mevasi ovchiga kuni bo'yi toliqmay hayvon ovlashga yordam beradi, mingdevona mevasi esa kishining qo'l-oyog'ini tirishtirib, esi past odamga o'xshab poyma-poy so'zlashiga sabab bo'ladi.

Bunday dorivor o'simliklardan tayyorlangan dorilarda zaharli moddalar biroz ortiqroq bo'lsa ham kuchli zaharlaydi yoki turli kasalliklarga yo'liqti radi. Adonis, angishvonagul, bangidevona, belladonna, issiriq, kuchala, marvaridgul, mingbosh, mingdevona va boshqalar shunday zaharli dorivor o'simliklar jumlasidandir. Shuning uchun o'simliklarni og'izga olmaslik, shuningdek ularni yig'ib olayotgan paytda qo'lni ko'zga urmaslik kerak. O'simliklarni yig'ib olgandan keyin qo'lni yaxshilab yuvish lozim.

Dorivor giyohlarni yig'ib olishda ular kelajakda ham o'sib ko'payishi uchun bir qismini qoldirish zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.K. Xoliqov. "O'zbekiston janubidagi dorivor o'simliklar". T - "Mehnat" - 1992.
- 2.Q.H. Hojimatov, K. Y. Yo'ldoshev, U.Sh. Shog'ulomov, O. Q. Hojimatov. "Shifobaxsh giyohlar dardlarga malham". Toshkent "O'zbekiston". 1995.
- 3.Yu.Murdaxayev. "O'zbekistonda Vatan topgan dorivor o'simliklar". Toshkent. "fan" 1990.